

LUG'AT USTIDA ISHLASH O'QUVCHINING FIKR DOIRASINI KENGAYTIRADI

Egamova Nasiba Bekqulovna

*Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani**46-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Keyingi yillarda yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimida bir qator yangilik va o'zgarishlar yuz bermoqda, Jahon ta'lim standartlariga javob bera oladigan ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish yo'lida juda ko'p foydali ishlar amalga oshirilmoqda.*

Kalit so'zlar: *til, o'zbek tili, so'z boyligi, so'zlar zanjiri, xotiradagi so'zlar Kishilar so'z boyligi qancha ko'p bo'lsa, ularning nutqi ham shunchalik aniq, ravshan, ta'sirli bo'ladi. Maktabda lug'at ustida ishlashni shunday uyushtirish kerakki, bolalarning har bir badiiy asarni o'qiganda, notanish jumlaning uchratganda yodida qolishini ta'minlash lozim.*

Lug'at ustida ishlash o'quvchining fikr doirasini kengaytiradi, yangi so'zlar bilan tanishtiradi. Tilimizning boy va nafisligini ko'rsatadi. Maktab o'quvchilari lug'at boyligining oshirishning birdan-bir vositasi - bu bu o'zbek tilida ma'lum so'zlarning sinonimlarini topish, shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzish, ularda katta qiziqish uyg'otadi. Ko'pgina o'quvchilar bu jarayonni bajarishda o'ylanib qoladilar. Vujudga kelgan qiyinchiliklarga sinonim so'zlardan samarali foydalana olmaslik va lug'at boyligini yetishmasligi deb qaraymiz.

Faqat ma'lum bir sinf uchun mo'ljallangan darslikdan foydalanish (hozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda) o'quvchilarning nutqini o'stirishda, lug'at boyligini oshirishda va sinonim so'zlar bilan ishlashda yetarlicha bo'la olmaydi. Buning uchun fan o'qituvchisi yordamida ona tilimizdagi sinonimlarning izohli lug'atlaridan ongli ravishda foydalanib, ma'lum bir so'zga mos sinonim so'zlarni topishlari, boshqalari bilan almashtirishlar, har bir so'zning anglatgan ma'nolari farqiga borishlari va nihoyat shu so'zlar yordamida gaplar tuzishlari maqsadga muvofiqdir.

ma'rifat-bilim, fan, ma'lumot, tanishish

mezon-o'lchov

tamal toshi-poydevor

(5-sinf ona tili Toshkent 2020)

Bundan tashqari hadis orqali o'quvchilar dinu e'tiqodimizni hamda ma'naviy qadriyatlarimizni tiklashda odobli, axloqli, halollik, rostgo'ylik, poklik, ota-ona hurmatini joyiga qo'yish, do'st tanlay olish kabi bilimlarga ham ega boladilar.

shahid -haqqoniyat yo'lida qurbon bo'lish

e'tiqod -qattiq ishonch, nuqtayi nazar, qarash

(5-sinf ona tili Toshkent 2020) O'quvchining so'z boyligini oshirish katta katta ahamiyatga ega.

O'quvchining so'z boyligi yetarli bo'lmasa, u o'z taassurotlarini, fikrlarini ifodalash uchun zarur so'zlarni topishga qiynaladi. Natijada bir xil so'zlarni takrorlab, g'aliz jummalarni ko'p ishlatadi, noo'rin to'xtalishlar qiladi.

O‘quvchilarda uchraydigan bu holat og‘zaki nutqni o‘stirishni qiyinlashtiradi. Shu o‘rinda boshqa tildan kirib kelgan, lekin barcha uchun tushunarli, biroq bollar uchun biroz tushinish qiyin bo‘lgan so‘zlar ustida ham ishlash bolaning fikrlashi va dunyoqarashini kengaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

atmosfera -yerni va boshqa planetalarni o‘rab turgan gazsmon qobiq

ozon -kislorodning bir ko‘rinishi, o‘ziga xos hidi bo‘lgan gaz ozon qatlami-atmosferadagi kislorodli qobiq ekologiya odam va tabiat munosabatini o‘rganuvchi fan purviqor -go‘zallik va viqorga boy

(5-sinf ona tili Toshkent-2020) Biror xorijiy tilni lug‘at yordamida o‘rganish sir emas. Biroq faqat chet tillarinigina emas, hatto o‘z ona tillini ham lug‘atlargiz pishiq-puxta o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Yangi so‘zni nutqda qo‘llash, faollashtirish, seriste‘mol so‘zga aylantirish bu o‘quvchining so‘z boyligini kengaytirishning hal qiluvchi bosqichi hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida, Shuningdek imlosi qiyin bo‘lgan so‘zlar ustida hamda bozor iqtisodiyoti davrida kundalik hayotimizdagi yangi-yangi so‘z va iboralar, atamalar ustida ham mashqlar, mashg‘ulotlarning muntazam o‘tkazib turilishi maqsadga muvofiqdir. Ona tili va adabiyot darslarida o‘qituvchi davr voqeyligidan kelib chiqib, so‘zlarga e‘tibor berishi, yangi atamalardan o‘rinli foydalanishi bugungi kun talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Koll. avtorlar 5-sinf “Ona tili” Toshkent- 2020
2. Koll. avtorlar 6-sinf “Ona tili” Toshkent- 2020
3. Koll. avtorlar “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent-2018
4. Otaboyeva M.B. “O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish yo‘llari” qo‘llanma
5. Hamroyeva N.F. “So‘z boyligini oshirish” qo‘llanma